# Narxlar ko‘z o‘ngimizda pasaymoqda! Eng mashhur yo‘nalishlarga 20% chegirma bilan parvoz qilamiz

**2023 26 Iyul**

*“Yorqin payshanba” aksiyasi doirasida Toshkentdan Dehli, Blagoveshchensk va Grozniy kabi shaharlarga hamyonbop tarzda sayohatni rejalashtiring!*

Shu hafta, 2023-yil 27-iyul kuni Uzbekistan Airways Toshkentdan Dehli, Blagoveshchensk, Grozniy va ortga qaytuvchi yo‘nalishlar tariflari narxiga 20% chegirma e’lon qiladi. Chegirma faqat 1 kun, 27 iyul soat 00:00 dan 23:59 gacha amal qiladi. Aksiya chegirmasi e’lon qilingan parvozlar jadvali tugagunga qadar ushbu aksiyada ko‘rsatilgan aviakompaniyaning barcha reyslariga taalluqli.

Markaziy Osiyo qanotlarida foyda bilan parvoz qiling!

Aksiyasining batafsil shartlari:

1. Aksiya muddati 2023-yil 27-iyul soat 00:00 dan 23:59 gacha;
2. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:

- kattalar uchun tarifdan – 20%;
- 2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 20%;
- chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun amal qilmaydi;

3. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig‘imlarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;
4. Ilgari sotib olingan aviachiptalar 27.07.2023da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qo‘llanilmaydi;

5. Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (ya’ni chegirma qo‘llanilgan holda) amalga oshiriladi;
6. Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qo‘llanilgan tarif qoidalari bilan belgilanadi, aviachiptalarni e’lon qilingan berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);
7. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;
8. Chegirma e’lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun faqat Toshkentdan Dehli, Blagoveshchensk, Grozniy va orqaga qaytuvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘nalishlar uchun taqdim etiladi. CodeShare aviaqatnovlarida va Tijorat shartnomalari (SPA) ostida e’lon qilingan tariflar uchun amal qilmaydi.

“Yorqin payshanba” aksiyasi doirasida aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy www.uzairways.com sayti, UzAirways ilovasi orqali, shuningdek, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin.